

ESG TAMOYILLARINING KORPORATIV BOSHQARUVDAGI O‘RNI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

e-mail: shodiyevairisa@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining zamonaviy korporativ boshqaruvdagi o‘rni xalqaro tajriba va O‘zbekiston milliy qonunchiligi misolida tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba sifatida ISSB, CSRD va CSDDD kabi standart va direktivalar, Germaniya (LkSG) va Singapur tajribalari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ular asosida O‘zbekistonda ESGni joriy etish jarayoni o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar tizimli ko‘rsatilib, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ESG tamoyillarining ahamiyatini ta’kidlaydi.

***Kalit so‘zlar:** ESG, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, xalqaro standartlar, O‘zbekiston qonunchiligi, due diligence, double materiality.*

РОЛЬ ПРИНЦИПОВ ESG В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА

Шодиева Ириса Соатмуродовна

Студентка Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль принципов ESG (Environmental, Social, Governance) в современном корпоративном управлении на примере международного опыта и национального законодательства Узбекистана. В качестве международного опыта рассмотрены такие стандарты и директивы, как ISSB, CSRD и CSDDD, а также опыт Германии (LkSG) и Сингапура. На их основе изучен процесс внедрения ESG в Узбекистане. Кроме того, в статье системно выявлены существующие проблемы и даны практические рекомендации по совершенствованию законодательства. Результаты исследования подчеркивают важность принципов ESG для устойчивого развития экономики Узбекистана.

Ключевые слова: *ESG, корпоративное управление, устойчивое развитие, международные стандарты, законодательство Узбекистана, due diligence, double materiality.*

THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN CORPORATE GOVERNANCE: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S LEGISLATION

Shodiyeva Irisa Soatmurod qizi

Student, Tashkent State University of Law

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the role of ESG (Environmental, Social, Governance) principles in modern corporate governance based on international experience and the national legislation of Uzbekistan. As international experience, standards and directives such as ISSB, CSRD and CSDDD, as well as the practices of Germany (LkSG) and Singapore have been examined. Based on them, the process of implementing ESG in Uzbekistan has been studied. The article also systematically identifies existing problems and provides practical recommendations for improving legislation. The research results emphasize the importance of ESG principles for the sustainable development of Uzbekistan's economy.

Keywords: *ESG, corporate governance, sustainable development, international standards, Uzbekistan legislation, due diligence, double materiality.*

KIRISH

Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida ekologik (Environmental), ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) tamoyillarini ifodalovchi ESG mezonlari muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari kompaniyalarning nafaqat moliyaviy natijalarini, balki atrof-muhitga ta'sirini, jamiyat oldidagi mas'uliyatini hamda ichki boshqaruv sifatini ham kompleks baholash imkonini beradi. Bu yondashuv uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi, investorlar ishonchini oshiradi va turli xavf-xatarlarni samarali boshqarishga yordam beradi [1]. Shu nuqtai nazardan ushbu maqola ESG tamoyillarining korporativ boshqaruvdagi o'rnini xalqaro tajriba va O'zbekiston milliy qonunchiligi misolida tahlil qilishga bag'ishlangan.

Mamlakatimizda "O'zbekiston-2030" strategiyasi zahirida 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinganidan so'ng, ayniqsa, ESG tamoyillarini joriy etish jarayoni faol davom etmoqda [2]. Tadqiqotning dolzarbligi

shundaki, global investorlar ESG reytinglarini investitsiya qarorlarida asosiy mezon sifatida qo'llamoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi ESG tamoyillarining huquqiy asoslarini qiyosiy tahlil qilish va O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun xalqaro standartlarni o'rganish, milliy qonunchilikni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va kelajak istiqbollari baholash vazifalari qo'yildi.

METODLAR

Tadqiqot huquqiy-tahliliy usullarga asoslanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning tizimli tahlili, solishtirma-tahlil, qiyosiy huquqshunoslik va ilmiy adabiyotlarning sharhi faol qo'llanilgan. Asosiy manbalar sifatida xalqaro hujjatlar, jumladan Xalqaro Barqarorlik Standartlari Kengashining (International Sustainability Standards Board — ISSB) standartlari, Yevropa Ittifoqining Korporativ barqarorlik hisoboti direktivasi (Corporate Sustainability Reporting Directive — CSRD) va Yevropa barqarorlik hisoboti standartlari (European Sustainability Reporting Standards — ESRS), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Co-operation and Development — OECD) tamoyillari hamda BMT Global Compact hujjatlari olingan. Milliy darajada esa O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy bazasi, xalqaro hisobotlar va ilmiy nashrlardan foydalanilgan. Shuningdek, tahlil jarayonida ikki tomonlama muhimlik (double materiality) tamoyili asos qilib olingan.

NATIJALAR

Xalqaro miqyosda ESG tamoyillari tavsiyaviy (dispozitiv) normalardan majburiy (imperativ) talablarga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Xalqaro Barqarorlik Standartlari Kengashi (ISSB) tomonidan ishlab chiqilgan umumiy talablar (IFRS S1) va iqlimga oid ochiqlik standartlari (IFRS S2) moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy bazasi bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ushbu standartlar investorlarga kompaniyaning barqarorlik bilan bog'liq xavf va imkoniyatlari haqida ishonchli ma'lumot berishga qaratilgan [4]. Undan tashqari, Yevropa Ittifoqi CSRD va ESRS kabi majburiy hisobotni joriy etgan bo'lib, ular ikki tomonlama muhimlik (double materiality) tamoyili asosida moliyaviy va ijtimoiy-ekologik ta'sirni hisobga oladi. Korporativ barqarorlik bo'yicha tegishli tekshiruv direktivasi (Corporate Sustainability Due Diligence Directive — CSDDD) esa yetkazib beruvchilar zanjirida tegishli tekshiruv (due diligence) talabini belgilaydi. Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda milliy qonunlar ESG talablarini yanada kuchaytirgan. Natijada, yaxshi boshqaruv (Governance) ekologik va ijtimoiy komponentlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi va kompaniya qiymatini oshiradi, deyishimiz mumkin [5].

O‘zbekiston Respublikasida ham ESG tamoyillari milliy qonunchiligimizga muvaffaqiyatli integratsiya qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini og‘ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘shishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish maqsadida 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni qabul qilingan. Ular “O‘zbekiston-2030” strategiyasini yashil iqtisodiyot yilida amalga oshirish dasturida yirik strategik korxonalar uchun ESG dasturlarini ishlab chiqish va hisobotlarni joriy etishni belgilaydi [3]. Shuningdek, kelgusida kamida beshta yirik sanoat korxonasida milliy ESG hisoboti joriy etiladi, davlat ishtirokidagi yirik kompaniyalar (Navoiy KMK, Olmaliq KMK, O‘zbekneftgaz va boshqalar) majburiy hisobot berishi lozim bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlari fond birjasida savdo qilinadigan 50 ta korxonalar uchun esa ixtiyoriy bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilgan. Korporativ boshqaruv kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun mustaqil direktorlar institutini, shaffoflikni va risklarni boshqarishni kuchaytiradi.

MUHOKAMA

Xalqaro tajribada ESG tamoyillari majburiy hisobot berish va chuqur maxsus tekshiruv (due diligence) orqali amalga oshirilmoqda, bu esa kompaniyalarni nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy-ekologik ta‘sirini ham hisobga olishga majbur qilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining CSRD va CSDDD direktivalari ikki tomonlama muhimlik (double materiality) tamoyilini qo‘llab, korporatsiyalarga yetkazib beruvchilar zanjiridagi xavflarni baholash majburiyatini yuklaydi. Bu yondashuv investorlar uchun yuqori shaffoflikni ta‘minlaydi va “yashil yuvish” (greenwashing) holatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [4]. Natijada, ESG talablariga rioya qiluvchi kompaniyalar moliyaviy bozorda yuqori baholanadi va kapital jalb qilishda afzalliklarga ega bo‘ladi.

Germaniya tajribasi

Xirijiy davlatlar tajribasini qaraydigan bo'lsak, Germaniyada ESG majburiy va qattiq rejida tartibga solingan. 2021-yilda qabul qilingan Ta'minot zanjiri bo'yicha tegishli tekshiruv to'g'risidagi qonun (LkSG — Lieferkettensorgfaltspflichtengesetz) yirik kompaniyalarga (1000 nafardan ortiq xodim) o'z ta'minot zanjirida inson huquqlari va ekologik xavflarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish majburiyatini yuklaydi. Bu qonun kompaniyalarni yetkazib beruvchilar zanjiridagi mas'uliyatni chuqur baholashga majbur qiladi, jarimalar esa juda yuqori (daromadning 2% gacha). Natijada Germaniya kompaniyalari ESGni strategik ustuvorlikka aylantirdi, ammo bu qo'shimcha xarajatlar va murakkab monitoring tizimini talab qiladi [6].

Singapur tajribasi

Singapurda esa ESG yanada moslashuvchan va bozor yo'naltirilgan yondashuvda amalga oshirilmoqda. Ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar uchun barqarorlik hisoboti "bajar yoki tushuntir" (comply or explain) prinsipi asosida majburiy bo'lib, iqlim bilan bog'liq ochiqlik 2025-yildan bosqichma-bosqich majburiy holatga o'tmoqda. Bu yondashuv kompaniyalarga moslashish uchun vaqt beradi, investorlar ishonchini oshiradi va Singapurni Osiyoda barqaror moliya markaziga aylantirishga yordam beradi. Natijada Singapur kompaniyalari xalqaro investorlarni jalb qilishda muvaffaqiyatli bo'lmoqda, ammo majburiy talablar Germaniyaga nisbatan yumshoqroq [7].

O'zbekistonda esa ESG joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich va asosan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar doirasida olib borilmoqda. Bu yondashuv rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun o'rinli bo'lib, keskin o'zgarishlardan kelib chiqadigan qarshiliklarni yumshatadi va xalqaro standartlarga asta-sekin moslashish imkonini beradi [2]. Shu bilan birga, quyidagi asosiy muammolar mavjud:

1) *ma'lumotlar sifati va monitoring tizimining yetarli emasligi — ko'plab korxonalar ESG ko'rsatkichlarini to'plash va tahlil qilish uchun zarur infratuzilma va metodologiyaga ega emas;*

2) *xususiy sektor uchun moliyaviy rag'batlarning yetishmasligi — soliq imtiyozlari, yashil kreditlar va subsidiyalar mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan;*

3) *malakali kadrlar va texnologik muammolar — ESG hisobotlarini tayyorlash bo'yicha mutaxassislar yetishmaydi;*

4) *huquqiy mexanizmlarning to'liq shakllanmaganligi — rahbarlarning ESG xavflari uchun javobgarligi aniq belgilab berilmagan va mustaqil audit tizimi rivojlantirilishga muhtoj.*

Demak, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Germaniya va Yevropa Ittifoqida jarimalar va majburiy talablar kuchli bo‘lsa, Singapurda rag‘batlantirish va moslashuvchanlik ustuvor, O‘zbekistonda esa bosqichma-bosqichlik asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Bu holat xalqaro investorlarni jalb qilish va kapital bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun monitoring va hisobot sifatini keskin yaxshilashni talab etadi. Shuning uchun ham ushbu tahlillar asosida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagicha takliflar berishimiz mumkin:

1) ESG hisobotlarini majburiy qilish doirasini bosqichma-bosqich kengaytirish va xususiy sektor uchun ham majburiyatlarni joriy etish;

2) “Yashil moliyalashtirish” va soliq imtiyozlari bo‘yicha alohida qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish;

3) korporativ boshqaruv kodeksiga ikki tomonlama muhimlik (double materiality) baholash va yetkazib beruvchilar zanjirida tegishli tekshiruv (due diligence) talablarini to‘liq kiritish hamda direktorlarning ishonchli boshqaruv majburiyatlarini ESG xavflari bilan bog‘lash;

4) mustaqil ESG auditorlik tizimini yaratish va xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Ushbu muhokama shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun eng samarali yo‘l — xalqaro tajribani (Germaniya va Singapur kabi) milliy sharoitlarga moslashtirgan holda rag‘bat va majburiyatni muvozanatlashtirishdir.

XULOSA

ESG tamoyillari korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylandi. Xalqaro tajribada Xalqaro Barqarorlik Standartlari (ISSB) va Yevropa direktivalari (CSRD, CSDDD) majburiy hisobot va tegishli tekshiruv (due diligence) orqali barqarorlikni ta‘minlasa, O‘zbekistonda ular asosida milliy huquqiy baza shakllanmoqda. Ushbu jarayonni chuqurlashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, xalqaro bozorga chiqishni osonlashtirish va investorlar ishonchini oshirish mumkin. ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli joriy etish nafaqat huquqiy majburiyat, balki strategik raqobatbardoshlik vositasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. International Finance Corporation. (2023). “ESG in emerging markets”. World Bank Group.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2026). “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son Qarori”. <https://lex.uz/docs/8171367>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni (30.01.2025)”. <https://lex.uz/docs/7369703>
4. International Sustainability Standards Board. (2023). “IFRS S1 and IFRS S2 standards”. <https://www.ifrs.org/issb>
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2025). “OECD corporate governance factbook 2025”. OECD Publishing.
6. German Federal Ministry of Labour and Social Affairs. (2021). “Lieferkettensorgfaltspflichtengesetz (LkSG)”. <https://www.bmas.de/SharedDocs/Downloads/DE/Internationales/act-corporate-due-diligence-obligations-supply-chains.pdf>
7. Singapore Exchange (SGX). (2025). “Sustainability Reporting Guide”. <https://www.sgx.com/sustainable-finance/sustainability-reporting>
8. European Commission. (2024). “Corporate Sustainability Due Diligence Directive (CSDDD)”.
9. Bekmirzayeva, U. A. (2026). O‘zbekiston Respublikasida ESG standartlarini joriy etishning huquqiy asoslari. “Tadqiqotlar jurnali”.
10. Norma.uz. (2026). Atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari joriy etiladi. <https://www.norma.uz>